

O'ZBEK TILIDA BAXT KONSEPTINING LINGVOMADANIY TALQINI

Rahmonova Zamira Salihiddinovna

Qashqadaryo viloyati Ko'kdala tumani

89-maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13907106>

Annotasiya: Maqolada o'zbek tilida baxt konseptining lug'aviy ma'nosi ochib berilgan. Maqola tavsifiy matn ko'rinishida yozilgan. Baxt so'zining hayotdagi lingvomadaniy talqini xususida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: baxt, tole, iqbol, affiksatsiya, lingvomadaniy, konsept

Baxt qadimgi davrda evdonizm falsafasining asosiy tushunchasi bo'lgan. Uning vakillari baxtga hayotning asosiy maqsadi, kishilar intiladigan masrurlikka erishilgan holatning, shod-hurram bo'lishning eng oliy ko'rinishi sifatida qaraganlar. Aristotel, Diogenlar ham shunday tushunganlar. Forobiy, Beruniy, Ibn Sin0, Sa'diy, Navoiy kabi olim va mutafakkirlar ijodida bu mavzu muhim o'rin egallagan. Zamonaviy o'zbek tilida ham bu mavzuga katta e'tibor berilmoqda.

Baxt nima? Aslida bu so'zni har bir inson o'zicha talqin qiladi. O'zbek va tojik tilida "Baxt", turk tilida "mutluluk", rus tilida "счастья", ingliz tilida "happy" kabi jaranglaydigan bu so'z, albatta, inson qalbini qaysidir ma'noda larzaga soladi. Faqat buni his qila olish lozim. Baxt - kishining o'z faoliyati natijalaridan, hayotda qo'lga kiritgan yutuqlaridan to'la qoniqishi, yashash tarzidan mamnunligi, muayyan maqsadga erishishi, orzu-niyatning amalga oshishi sifatida namoyon bo'ladigan ma'naviy-axloqiy tushuncha. "Baxt" so'zi asli o'zbek tiliga fors-tojik tilidan kirib kelgan bo'lib, mamnunlik ifodasini beradi. O'zbek tiliga kirgan bu so'zdan affiksatsiya usuli yordamida baxtli, baxtsiz, bebaxt, baxtsizlik kabi so'zlar, kompozitsiya usuli yordamida esa baxt-saodat, baxt-saodatli kabi juft so'zlar, baxti ochilsin, baxti kulsin, baxtga qarshi kabi iboralar ham yasalgan. Baxt so'zining sinonimi sifatida tole, saodat, iqbol konseptlari ham ishlatiladi. Tole konsepti arabcha so'z bo'lib, "yuqorilayotgan, ko'tarilayotgan, taqdir, qismat" ma'nolarini bildiradi. Saodat so'zi arabcha so'z bo'lib, baxt, muvaffaqiyat, omad, xotirjamlik ma'nolarini bildiradi. Iqbol leksemasi arabcha so'z bo'lib, peshvoz chiqish, yaqinlashish, qiziqish, baxt, omad ma'nolarida ifodalanadi. Baxt so'zining ma'nosi, uning mohiyati, inson hayotidagi lingvomadaniy talqini xususida tilshunoslikda, badiiy adabiyotda, antroposentrik yo'nalishlarda har xil qarashlar bor.

Aslida baxtni his qilish har bir qalbdagi o'z me'yorga ega. Farzandsiz inson farzand ko'rishni, yoshi o'tib qolgan yigit yoki qizlar turmush qurishni, ko'zi

ojizlar dunyoni ko'rishni,kasal- bemorlar tuzalib ketishini, puli yo'q qashshoqlar puli ko'p boy bo'lishni omad ,baxt deb hisoblashadi. Zotan , inson bu dunyoning mohiyatini anglab yetgan sari har bir olayotgan nafasimiz bu bizning toleyimiz ekanligini his qilamiz.

Shu o'rinda shoir Shavkat Rahmonning "Baxt so'zi" she'ridan quyidagi satrlarga diqqat qilaylik:

Baxtiyorman degan birgina so'zni
aytish uchun kerak qancha kuch,chidam,
garchi baxt so'zlarning eng yoqimligi,
garchi tursa hamki, tilning uchida.

Haqiqatdan ham bu so'z juda yoqimli.Bu so'zni aytish insonga qanchalik qiyin va oson. Chunki odamzod shunday xilqatki, sal narsadan quvonib ketsa ,o'zini juda baxtli, sal narsadan xafa bo'lsa birdan o'zini baxtsiz his qila boshlaydi.

Og'ir botmasmikan bu so'z kimgadir,
tegib ketmasmikan oh-vohlariga,
qandoq bardosh berib yashayman keyin
baxtsiz kimsalarning nigohlariga.

Shoir keyingi satrlarida o'zining baxtli ekanligini aytishdan iymnadi, agar baxtli ekanligini aytsa, baxtsiz insonlar xafa bo'lib qolmasmikan deb o'ylaydi. Bu ham qaysidir ma'noda haqiqat. Baxtililigini aytayotgan inson nimadan baxtni his qilayotganini keltirmasa, o'zini baxtsiz deb hisoblaydigan insonlar,garchi ular o'zlarining qaysi o'rinlardagina baxtsiz ekanliklarini tushunib yetmasa- da xafa bo'lishlari mumkin.

Baxtlar bilan bezatilgan taxt,
Xudoyimga yetsa bas zoring
Kimdir seni sog'insa,shu Baxt,
Baxt aslida dunyoda boring!

Shoir Erkin Vohidov ham "Baxt" so'zini o'zicha talqin qiladi:
Baxt nima? Ming bo'lakka bo'lib dunyoni,
Tug'lgandan baxtni izlaymiz.



Qo'llaridan tutib ro'yoni
Atrofda baxt,ba'zan bilmaymiz.

Haqiqiy baxtni ko'ra olgan ijodkor shoirlar, yozuvchilar,uning tub mohiyatiga ham yetgan bo'lsa ajab emas!

Baxtlar bilan bezatilgan taxt,
Xudoyimga yetsa bas zoring
Kimdir seni sog'insam,shu Baxt,
Baxt aslida dunyoda boring!

Baxt nisbiy tushuncha, mutlaq baxt yo'q. Baxtni qanday ma'noda tushunish shaxsning ijtimoiy o'rniga, bilimi, yoshi, dunyoqarashiga bog'liq. Baxt haqidagi kishilarning tasavvurlari ijtimoiy tuzum va undagi ijtimoiy munosabatlar majmuasi bilan uzviy bog'liq. Chinakam baxtli bo'lish uchun har bir shaxs erkin, teng, o'z iste'dod va qat'iyatini har tomonlama namoyon qilishi, moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish imkoniyatiga ega bo'lmog'i zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish 2-nashr.-T.Sharq, 2010.-150 b.
2. I. Mirzo "Bonu" Toshkent.:2018. - 50-92b.
3. Said Ahmad. Cho'l burguti (Hikoyalar to'plami). - Toshkent: "G'afur G'ulom", 1998. - 103b.
4. Tog'ay Murod "Otamdan qolgan dalalar"-T.: - 101.
5. Oxford Advanced learner's dictionary of current English. - 2000. - 67.

